

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

“KELISHILGAN”
Oliy va o‘rta maxsus
ta’lim vazirligi:

_____ 2021 yil
“ ”

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand davlat universiteti
rektori:
prof. R.I. Xalmuradov



_____ 2021 yil

5A120101 - ADABIYOTSHUNOSLIK (O‘ZBEK ADABIYOTI)

**MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGIGA
KIRISH SINOVLARI UCHUN
MAXSUS FANLARDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

ANNOTATSIYA

Dastur 51201000 – Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek ili) bakalavriat ta`lim yo`nalishi o`quv rejasini va fanlar dasturi bo`yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi hamda kasbiy kompetensiyalariga qo`yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o`zlashtirishi amaliyotlarni o`tashi va natijasi kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko`nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta`minlovchi mazmunda 2017/2018 o`quv yilida tasdiqlangan o`quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzilgan.

TUZUVCHLAR:

Pardayev A.B. - SamDU O`zbek tilshunosligi kafedrasini professori

Mahmadiyev Sh.S. - SamDU O`zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri

Hasanov Sh.A. - SamDU Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasini mudiri, f.f.d., professor

Sulaymonov I.I. - SamDU Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasini mudiri, f.f.d., dotsent

Dastur Filologiya fakulteti Kengashining 2021 yil 28 iyundagi 9-son yig`ilishida, Universitet kengashining 2021 yil 30 iyundagi 11-son yig`ilishida muhokama etilgan va tavsiya etilgan.

KIRISH

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi PF-4797-sonli "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmonida o'zbek tilining nufuzini yanada yuksaltirish, o'zbek tilshunosligini yangi bosqichga olib chiqish, globallashtirish sharoitida o'zbek tilidan foydalanish ko'lamini kengaytirish va o'zbek tili ixtisosligi bo'yicha yangi avlod kadrlarini tayyorlash, o'zbek tili va adabiyoti muammolarini tadqiq etishni yangi bosqichga ko'tarish vazifasi qo'yilgan. Har bir fanning o'qitish, o'rganish va tadqiq etish metodologiyasi bo'lishi ta'kidlangan.

O'zbek tili tarixi

O'zbek xalqi va tilining tarkib topishi va nomlanish masalalari; o'zbek tili va uning o'rganilish tarixi; umumxalq tili va uning shakllari (ilk bosqichlari: sheva, lahja, dialekt, so'zlashuv; yuqori bosqichlari: adabiytil, milliy (adabiy) til kabi) va ularning o'zaro munosabati; umumturkiy til davrida hududiy adabiy til shakllarining yuzaga kelishi haqida turkshunoslarning fikrlari; o'zbek adabiy tili tarixini tasniflab va davrlashtirib o'rganish masalasi "qadimgi turkiy til", "eski turkiy til", «eski o'zbek tili», «hozirgi o'zbek tili» tushunchalari haqida.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tili va uning o'zbek tilining shakllanishidagi ahamiyati (VII-X asrlar); XI-XIV asrlarda O'rta Osiyo va Oltin O'rda hududlarida yaratilgan adabiy yodgorliklar tili va uning o'zbek tiliga munosabati; Mahmud Koshg'ariyning tilshunoslik va til nazariyasi sohasidagi xizmatlari; Al Zamaxshariyning tilshunoslik faoliyati; Xorazm-Oltin O'rda va Arab hududlarida-(o'g'uz-qipchoq) vujudga kelgan umumturkiy til yozgorliklar va ularning o'zaro munosabati; XIV asr oxiri va XV asrning 1-yarmidagi o'zbek adabiy tili va uning shakllanish manbalari.

Alisher Navoiy – o'zbek adabiy tilining asoschisi (Alisher Navoiy tilining dialektal asoslari; Alisher Navoiyning «Muhokamatul-lug'atayn» asari va uning o'zbek tili rivojidadagi o'rni); XVI asr o'zbek adabiy tili rivojini o'rganishda Bobur asarlarining ahamiyati.

XV-XIX asrlarda eski o'zbek tili bo'yicha yaratilgan lug'atlar va grammatik asarlarning o'zbek tili tarixini o'rganishdagi ahamiyati. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek adabiy tilining asosiy xususiyatlari.

Eski o'zbek adabiy tilining funktsional uslublari tarixi, ularning shakllanishi va taraqqiyoti. O'zbek tilida publitsistik uslubning paydo bo'lishi va shakllanishida o'sha davr matbuoti tilining o'rni. O'zbek milliy adabiy tili va uning shakllanish manbalari. Milliy adabiy tilning asosiy xususiyatlari;

Eski o'zbek tilida unli va undoshlar tizimi; Eski o'zbek tilida singarmonizm; eski o'zbek tilida kelishiklar va ularning ifodalanish shakllari; eski o'zbek tilida sifat darajalari va ularning ifodalanish shakllari; eski o'zbek tilida tartib son va uning ifodalanish usullari; eski o'zbek tilida kishilik olmoshlari va ularning turlanishi; eski o'zbek tilida fe'l mayllari; eski o'zbek tilida fe'l zamonlari va ularning ifodalanish shakllari.

Eski o'zbek tilining sintaktik xususiyatlari. Eski o'zbek tilida gap bo'laklari, gaplarning tuzilishi va tiplari.

O'zbek shevashunosligi (dialektologiyasi)

Hozirgi o'zbek adabiy tilining dialektal asoslari. Qarluq lahjasi va unga

mansub shevalar. Qipchoq lahjasi va unga mansub shevalar. O'g'uz lahjasi va unga mansub shevalar. Hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida qarluq, qipchoq va o'g'uz lahjalaridan har birining o'rnini va ahamiyati. Hozirgi paytda o'zbek shevalarini tadqiq etishdagi muammolar.

O'zbek shevalarida «o»lashish, uning yuzaga kelish sababi va genezisi. O'zbek shevalarida unililar va ularning adabiy tildagi unililardan sifat va miqdor jihatidan farqlanishi. O'zbek shevalarida undoshlar va ularning adabiy tildagi undoshlardan sifat va miqdor jihatidan farqlanishi.

O'zbek shevalarida egalik kategoriyasi. O'zbek shevalarida ko'plik kategoriyasi. O'zbek shevalarida kelishiklar. O'zbek shevalarida fe'l zamonlari. O'zbek shevalarida ko'makchilar. O'zbek shevalarida so'z yasalishi; so'z va shakl yasovchilar.

O'zbek shevalarining lug'aviy tarkibi va uni o'rgangan o'zbek shevashunoslari.

Hozirgi o'zbek adabiy tili

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» kursi bo'yicha tuzilgan dastur va savollar imtihon topshiruvchining hozirgi o'zbek tili fonetikasi, morfemikasi va so'z yasalishi, morfologiyasi va sintaktik tuzilishi, grammatik kategoriyalari va ularning tasnifi, lug'aviy tizimi va uning tarkibi, boyish manbalari, imlosi va to'g'ri talaffuzi, uslubiyati va boshqalar haqidagi bilimlarini aniqlashni ko'zda tutadi.

O'zbek tilining lug'at tarkibi murakkab tizim va qatlamlardan iborat bo'lib, so'zlar ijtimoiy hayotning turli sohalari qo'llanib, muayyan sohalarga funktsional jihatdan moslashgan, tarmoqlangan bo'ladi. Mana shunday sohalardan biri ilm-fan sohasi bo'lib, unga xoslangan so'zlar terminlar hisoblanadi. Terminologiya bo'yicha tuzilgan savollarning maqsadi imtihon topshiruvchi shaxsning terminologiya, jumladan, o'zbek terminologiyasi bo'yicha bilim darajasini aniqlashdir. Ayniqsa, ilmiy-tadqiqot olib borayotgan shaxslarning ilmiy terminologiyaning mohiyatini, asosiy lisoniy va nolisoniy xususiyatlarini yaxshi bilishi, o'z sohasida terminlarni to'g'ri qo'llay olishi nihoyatda muhimdir. Aksincha, terminlarni noto'g'ri qo'llash ilmiy tushunchalarni to'g'ri tushunishga xalaqit beradi.

Nutq madaniyati va uslubshunoslik, imlo va to'g'ri talaffuz sohalari bo'yicha tuzilgan dastur-savollar haqida ham ayni shu fikrlarni aytish mumkin.

Fonetika, so'z yasalishi, leksikologiya, grammatika

O'zbek tili unilari va ularning tasnifi. O'zbek tili undoshlari va ularning tasnifi. O'zbek tilida qo'sh undoshlarning qo'llanishi. Adabiy talaffuz (orfoepiya) me'yorlari. Imlo va to'g'ri talaffuz. Hozirgi o'zbek imlo tamoyillari. Lotin yozuviga asoslangan hozirgi o'zbek alifbosining xususiyatlari.

Tarixiylik jihatidan o'zbek tili leksikasi. O'zbek tilida tarixiy va eskirgan so'zlar. Qo'llanish doirasiga ko'ra hozirgi o'zbek tili leksikasi: dialektal, maxsus, jargon va boshqa turdagi so'zlar. O'zbek tilileksikasining faol va nafaol qatlamlari. So'zlarning nafaol zaxiraga o'tishi yoki eskirgan so'zlarning yangi ma'no kasb etishi. Ularni yuzaga keltiruvchi omillar. O'zbek tilining mustaqillik davri rivoji: neologizmlar.

So'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. Sinonimiya va sinonimik qator. Antonimiya. Omonimiya. Paronimiya. Polisemiya. Polisemiya va omonimiya munosabati. So'zning o'z (to'g'ri) va ko'chma ma'nosi. Okkazional va uzual ma'no.

Nom ko'chish usullari va ko'chma ma'nolar. Metafora. Metonimiya. Sinekdoxa. Vazifadoshlik.

Frazeologiya va frazeologizm. Frazeologizm – terminologik birikma – erkin so'z birikmasi.

Leksikologiya va leksikografiya. Lug'at turlari.

O'zbek tilida affiksial morfemalarning turlari. O'zbek tilida so'z yasash usullari. Diaxron va sinxron so'z yasalishi. Qo'shma so'zlar va ularning so'z birikmalaridan asosiy farqlari.

O'zbek tilida lug'aviy va grammatik ma'no, ularning grammatik kategoriyalarga munosabati. Otning grammatik kategoriyalari. Sifat va uning daraja kategoriyasi. Ravish va uning turlari. Sonning ma'noga ko'ra turlari. Olmosh va uning turlari.

O'zbek tilida fe'lning grammatik kategoriyalari. Fe'lning funktsional shakllari. Fe'lning nisbat kategoriyasi. Fe'lning mayl kategoriyasi. Fe'lning zamon kategoriyasi, fe'l zamonlarining turlari. Inkor ifodalovchi vositalar va fe'lning inkor (bo'lishsizlik) shakllari. Yordamchife'l va uning turlari. To'liqsiz fe'l.

O'zbek tilida yordamchi so'z turkumlari, ularning vazifaviy xususiyatlari.

O'zbek tilida sintaktik birliklarning turlari (so'z birikmasi, gap, matn) va ularning o'zaro munosabati. Sintaktik aloqa turlari. So'z birikmalari.

Aniq va majhul tuzilmalar (faol va nofaol konstruktsiyalar). Sintaktik qayta bo'linish jarayoni.

O'zbek tilida gapning maqsadiga ko'ra turlari. Gapning tuzilishiga ko'ra turlari. Sodda va qo'shma gaplar. Yig'iq va yoyiq gaplar. Tasdiq va inkor gaplar.

O'zbek tilida ajratilgan bo'laklar. Undalma. Kirish va kiritma tuzilmalar.

O'zbek tilida qo'shma gaplarni tasniflash tartibi. Bog'langan qo'shma gaplar. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar. Ergash gaplarning turlari. Ergash va bosh gaplarni bog'lovchi vositalar. O'zga gap va uni ifodalash yo'llari.

O'zbek tilida matn.

Terminologiya

Termin va terminologiya tushunchalari haqida. Terminga qo'yiladigan asosiy talablar. Terminlarni me'yorlash tamoyillari. Terminologik lug'atlar va ularni tuzish printsiplari. Terminologiyada omonimiya va sinonimiya hodisalariga, polisemiyaga munosabat. Terminologiya va purizm. Ilmiy terminologiya va xalq terminologiyasi.

Terminologik tizimlarni tasniflash asoslari. Terminologik tizimlarning mavzuiy guruhlari. Termin-birikmalarning termin-frazeologizmlardan farqli belgilari.

O'zbek tili terminologik tizimlari boyishining ichki imkoniyatlari. O'zbek tili terminologik tizimlari boyishining tashqi imkoniyatlari (arabcha, forsha, ruscha va baynalmilal o'zlashmalar). Mustaqillik davri o'zbek terminologiyasi tamoyillari.

Nutq madaniyati va uslubshunoslik (stilistika), nomshunoslik (onomastika)

Adabiy til tushunchasi. Adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari. Adabiy me'yor tushunchasi. Adabiy me'yor turlari. Adabiy tilning lahja va shevalar bilan o'zaro munosabati. O'zbek adabiy tilining dialektal asoslari.

Adabiy til va nutq madaniyati. Nutq madaniyati – tilshunoslikbo'limlaridan biri sifatida. Nutq madaniyati sohasining tadqiqot ob'ekti. Uslubshunoslik (stilistika) sohasi va uning tadqiqot ob'ekti. O'zbek uslubshunosligining o'rganilish darajasi. O'zbek tilining funktsionaluslublari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Badiiy

uslubning o'ziga xos xususiyatlari. Badiiy matnning asosiy xususiyatlari. Lingvopoetika haqida tushuncha. Lug'aviy stilistika.

Onomastika sohasi va uning tadqiqot ob'ekti. Onomastika leksikologiyaning bo'limi sifatida. O'zbek antroponimiyasi va uning xususiyatlari. Atoqli otlarning tiplari va o'ziga xos xususiyatlari. Etnonimiya haqida tushuncha va o'zbek etnonimlari. Toponimika –tilshunoslikning bo'limi sifatida. Toponimlarning tarkib topishida nolisoniy omillarning roli. O'zbek toponimiyasining o'rganilish darajasi. Mustaqillik davrida toponimlarni tartibga solish borasida olib borilayotgan ishlar.

O'zbek adabiyoti tarixi.

Adabiyotshunoslik fani va uning tarkibiy qismlari (o'ziga xos xususiyatlari, o'rganilish tarixi, 4 tarkibiy qismi). O'zbek xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari, janrlari, taniqli namoyandalari. (Xalq og'zaki ijodining yozma adabiyotdan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlari, janrlari (doston, terma, askiya). Fozil Yo'ldosh o'g'li, Islom shoir, Ergash Jumanbulbul, Po'lkan va ularning qator iste'dodli davomchilari.). Qadimgi mif va afsonalar.(Mitra, Qayumars, Jamshid, Ellibek, Rustam, Suyovish, Afrosiyob haqidagi asotir va afsonalar. Ularning o'rganilish manbalari. Ularda qadimgi ajdodlarimiz tarixi hayotiga oid ma'lumotlarning berilishi.) Adib Ahmad Yugnakiy va uning «Hibbatul xaqoyiq» asari (A.Yugnakiy va uning «Hibbatul xaqoyiq» asari. Navoiyning «Nasoyim ul - muhabbat» asarida adib haqidagi fikrlar. «Hibbatul xaqoyiq» - pandnoma xarakteridagi asar. Asar shakli). Mavlono Lutfiy - shoir va dostonnavis. (Mavlono xaqida A.Navoiyning fikrlari. Devoni. «Zafarnoma» dostoni. «Gul va Navro'z» dostoni borasidagi munozaralar.) Murabba' va uning o'ziga xos xususiyatlari. Muqumiy murabballari. (Murabba' – musammatlarning shakliy xillaridan biri. Aruzning engil vaznlarida yoziladi. Murabba' shakli.Ahmad Yassaviy, Mashrab va boshqalarning murabba' janridagi ijodi. Muqimiy murabba' she'r ustasi.) Tazkiranavislik va uning adabiy tanqid tarixidagi ahamiyati. (Navoiygacha yaratilgan tazkiralar. «Majolis un – nafois» turkiy tildagi dastlabki tazkira. Nisoriy, Maleho, Mutribiy, VozeH kabi tazkiranavislar. «Tazkirai Qayumiy» zamonaviy tazkira). Anbar Otin she'riyati (Anbar Otin ma'rifatparvar shoira. Shoiraning lirik asarlari, hajviy g'azallari, purhikmat qit'a va yakka baytlari. «Qarolar falsafasi» risolasi.) A.Navoiyning «Hayrot ul – abror» dostoni. (A.Navoiyning «Xayrat ul – abror» dostoni: falsafiy ijtimoiy ahloqiy doston. Doston hamd, na't, hayrat, maqolat, hikoyat va tamsillardan iborat. Doston mavzui inson va uning manfaatlari, ahloqi va o'zligini tanish. Asarda ilohiylik va dunyoviylik talqinlari). «Boburnoma» - tarixiy esdalik asar. («Boburnoma» - memuar janrning buyuk namunasi. 1484 – 1529 yillar voqea xodisalari. Markaziy obraz – Bobur. Asarning xorijiy tillarga tarjima etilishi.) Ogahiyning tarixiy va tarjima asarlari. (Ogahiy mohir tarixchi va tarjimon. Xorazmning 1813 yilda 1872 yilgacha bo'lgan tarixni yorituvchi 5 ta hamda musulmon sharqida mashhur bo'lgan shoir va adiblarning asarlari tarjimasidan iborat 19 ta asarning muallifi.) Alisher Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostoni. (Dostonidagi hikoyatlar. «Bahromu Gulandon» bosh qoliplovchi hikoyat. Asardagi birinchisi musofir hikoyati. Ijobiy va salbiy timsollar. Dostonda insonparvarlik g'oyasi.) Atoiy g'azaliyoti. (Adib haqida Navoiy keltirgan ma'lumotlar. Shoirning qo'lyozma devoni. Ishqiy – tasavvufiy mavzularning g'azallarida etakchi o'rin tutishi. G'azallarining vazni va undagi oshiq-ma'shuq va ag'yor obrazlari. Adib ijodida majoz va badiiyat.)

A.Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni. (Majoziy ishq mavzuidagi doston. Dostongda Farhod, Shirin, Shopur, Mehinbonu obrazlari orqali shoirning gumanistik qarashlarini aks etishi.) Abdurauf Fitrat hayoti va faoliyati. (Fitrat – jadid maktabining yirik vakili. Chet ellardagi hayoti. «Sayha» birinchi she'riy to'plami. Uning lirikasi.Munozara», Hind sayyohi» asarlarining yozilishi. Fitratning siyosiy va ma'rifatparvarlik faoliyati. Xojaning hayoti va adabiy merosi.(Xoja - mohir hikoyanavis.Uning saroydagi faoliyati. Xojaning «Gulzor», «Miftohul adl» asarlari.) Uvaysiy hayoti va ijodi. (Johon Otin Uvaysiy (1790 - 1850)Umarxon hukmronligi davrida avval Marg'ilon, so'ng Qo'qonda yashab ijod etgan shoira.Devoni «Voqayati Muhammad Alixon» – tarixiy manzumasi. «Shahzoda Hasan» va «Shahzoda Husan» dostonlari.G'azal va chistonlari.) «Qutadg'u bilig» – turkiy xalqlar adabiyotining yirik obidasi. (Asar XI - XII asrlar o'zbek didaktik adabiyotining yirik namunasi. «Qutadg'u bilig» asarining shakli, vazni, timsollari.) Sakkokiyning g'azal va qasidalari. (Sakkokiy qasidanavis. Ulug'bek Mirzo madhiga va o'sha davrning nufuzli kishilariga bag'ishlangan qasidalari.) Turdi muxammaslari. (Turdi– Farog'iyning besh muxammasi. To'rttasi turkiy, bittasi Sa'diy g'azaliga yozilgan tazmin. Subhonqulixon haqida hamda «Turkiy muxammasi»da tanqidiy hamda xasbi xollik ruhi.) A.Navoiyning «Xazoyin ul - maoniy»si tarkibi.(A.Navoiyning «Xazoyin ul - maoniy» buyuk shoirning lirik asarlari majmuasi. Asar 4qismdan iborat. «G'aroyib us sig'ar», «Navodir ush shabbob», «Badoi'ul vasat», «Favoid ul kibar».16 xil janrdagi lirik asarlar keltirilgan. Asrada g'azal etakchi o'rin tutadi. Turdi hayoti va ijodi. (Turdi XVII asr o'zbek adabiyotining o'ziga xos namoyandasi. XX asrning boshida asarlarining topilishi: 18ta she'ri – 12ta g'azal, 5ta muxammas, 1ta fard. Adib ijodida ijtimoiy mavzu.) Qit'a va ruboiylarning shakliy – poetik xususiyatlari. (Qit'a va ruboiylar kichik lirik janrlardir. Sarband misradan iborat. Qofiya tartibi qit'ada ba-va-ga, ruboiyda a-a-b-a, a-a-a-a (taronai ruboiy) aruzning xazaj bahrida yozib kelingan: qit'ada vazn chekgarasi yo'q. Navoiy, Bobur, Xuvaydo, Munis, Ogahiy, Avaz qit'a va ruboiylari mashhur.) Muhammad Solih va uning «Shayboniynoma» dostoni.(XVI asr avvallarida Shayboniylar sulolasiga asos solindi.Shayboniixon 1510 yilgacha hukmronlik qilgan. «Shayboniynoma» – tarixiy dostonida Shayboniy yurishlari ifodalangan.) «Majolis un nafois» va «Mezon ul avzon» o'rta asr adabiyotshunosligining muhim namunalaridan («Majolis un nafois» - adabiy tazkira. Tazkira 8 majlisdan iborat va 400dan ortiq salaf va zamondosh shoirlar haqida ma'lumot beradi. «Mezon ul avzon» o'zbek yozma va xalq og'zaki ijodining vaznlari, xususan aruz vazni haqidagi ilmiy asar.) Zokirjon Furqat – ma'rifatparvar shoir. (Furqat (1859-1909) mustamlakachilik davridagi yangicha ma'rifatparvarlikda mashhur bo'lgan shoir, adib, publitsist. Adibning ma'rifatparvarlik qarashlari shakllanishida Toshkentning ta'siri. Ma'rifatparvarlik mavzusidagi qator manzumalari, memuar asarlari, she'riy va nasriy maktublari. o'zbek–ozarbayjon adabiy aloqalari.(Ikki turkiy xalq va ularning shoiru adiblari orasida do'stlik, qardoshlik adabiy aloqalar rivojlanib kelgan. Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy,Nasimiy, Lutfiy, Xoja, Ogahiy, Furqat kabilarning asarlari ko'prik rolini o'tagan. Tarjimalar.) A.Navoiy tuyuqlari va uning asosiy belgilari. (Tuyuq va uning asosiy belgilari. Navoiy tuyuqlari. Tuyuq – turkiy she'riyatga xos lirik janr. «Ramali musaddasi maqsur» vaznida yoziladi. Mashrab she'riyati. (Mashrab Namanganda tavallud topib, Qoshg'arda va boshqa o'lkalarda bo'lgan.«Qissayi Shoh Mashrab»da rivoyat, naqlar, shoir asarlari keltirilgan.1991 yilda devoni to'laroq holda nashrdan chiqdi.) A.Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostoni. (Saddi Iskandariy» dostoni «Xamsa»ning

beshinch dostoni. Komil inson, adolatli shoh haqidagi romantik obrazlar talqini. Iskandar va uning atrofidagi donishmandlar tasviri. Dostondagi Abu Said, Tilla kampir, Bahromgo'r, Mahmud G'aznaviy, Luqmoni Hakim haqidagi hikoyatlar) Durbek va uning «Yusuf va Zulayho» dostoni.(Doston mavzusi Yusuf va Zulayho ishq tarixidir. Doston inson ruhining , inson ma'naviyatining qomusidir. «Yusuf va Zulayho» dostoni ishqiy–sarguzasht, ahloqiy doston. Andalib kabi shoirlarning shu mavzudagi ijodi) o'zbek adabiyotini davrlashtirish masalasi. (.o'zbek adabiyoti masalasini davrlashtirish to'rt davrga bo'lib o'rganish tavsiya etilgan: qadimgi madaniyat va adabiyot, XII asr Sharq uyg'onish davri adabiyoti, XII-XVI asrlar adabiyoti, XVII-XIX asrlar adabiyoti, milliy uyg'onish davri adabiyoti.) A.Navoiyning «Layli va Majnun» dostoni.(Dostondagi obrazlar. Majoziy ishqning haqiqiy ishqqa aylanishi. Layli, Qays (Majnun), Navfal obrazlari orqali tasvirlangan oshiqlikning umumiy timsoli. Qadimgi madaniyatni o'rganish manbalari.(Muqaddas diniy kitoblar. «Tavrot», «Injil», «Zabur», «Qur'on», «Avesto», «Bundashixon» va boshqalar. Qadimgi Yunon ossuriy, Xitoy arab sayyohlari va tarixchilari asarlari.) Komil Xorazmiyning adabiy merosi. (1825-1899 yillarda hayot kechirgan. Feruz, Ogahiy, Tabibiy, Bayoniylarga zamondosh shoir, hattot, tarjimon, musiqachi. «Devoni Komil»da 4000 baytga yaqin g'azallari, murabba'lari, muxammaslari, musabba'lari. Adibning «Qasidai Navro'z» asari. A.Navoiyning «Lisonut tayr» asari. («Lisonut - tayr» - tasavvufiy falsafiy doston. Majoziy mazmun va timsollarga ega. Semurg', Hudhud, Shayx Sano'n va boshqa ko'p personajlar tasviri bor. Etti vodiy tasviri Boyazid Bistomiy, Mansur Xalloy, Jo'neyd Bog'dodiy, Attor kabilarning tasavvufiy qarashlarining Navoiy tomonidan davom ettirilgan.) Ishoqxon Ibratning adabiy va ilmiy merosi.(Shoir, lug'atshunos, tilshunos, tarixchi olim, sayohatchi, matbaachi sifatida asarlar yaratgan. «Lug'ati al sitta», «Jome' ul hutut, «Mezon ul zamon», «Tarixi Farg'ona», «Tarixi madaniyat» kabi asarlar muallifi). Samarqand navoiyshunoslik maktabi. (Samarqandlik olimlarning navoiyshunoslik taraqqiyotiga qo'shgan hissalar. Abdurauf Fitrat, Abdurahmon Sa'diy, Sadridin Ayniy, Vohid Abdullaev, Botirxon Valixo'jaev, Muslihiddin Muhiddinov, Rahmonqul Orzibekov, Shuhrat Sirojiddinov kabi olimlarning xizmatlari va ilmiy asarlari.) «Boburnoma» da Samarqand tasviri. («Boburnoma» da Samarqand tasviriga oid alohida fasllar berilgan. Samarqandning qadimiyligi, nomlanishi, tarixiy obidalari, qadamjolari, tabiati, aholisi, bog'u rog'lari haqida olimu fuzolalar haqida aniq lavhalar chizilgan.) Murabba' va uning o'ziga xos xususiyatlari. Muqumiy murabbalari. (Murabba' – musammatlarning shakliy xillaridan biri. Aruzning engil vaznlarida yoziladi. Murabba' shakli.Ahmad Yassaviy, Mashrab va boshqalarning murabba' janridagi ijodi. Muqumiy murabba' she'r ustasi.) A.Navoiyning «Nasoyim ul – muhabbat» asari. (Mashoyihlar, azizu anbiyolar, mutasavvuf hayoti, karomatlari ular haqidagi nasriy asar.) A. Navoiyning «Layli va Majnun» dostonidagi obrazlar. (Sevgi dostonidagi majoziy ishqning haqiqiy ishqqa aylanishi. Layli, Qays (Majnun), Nafal obrazlari orqali tasvirlangan. Majnun oshiqning umumiy timsoli. Layli ishq dardining go'zal timsoli.) «Gul va Navro'z» asari va uning muallifi. (Asarning Lutfiyga nisbat berilishi. Keyingi yillardagi izlanishlar natijasida asarning Haydar Xorazmiy qalamiga mansub ekanligi. Bu haqda «Funun ul balog'a» asaridagi ma'lumotlar. «Gul va Navro'z» ishqiy – qahramonlik dostoni.) Avaz o'tar va uning adabiy merosi. (Avazniyoz – Avaz o'tar (1884 - 1919) Xorazmdagi o'zbek adabiyotining talantli namoyandasi. Devonlar tartib bergan. 1984 yilda tavalludining 100 yilligi munosabati bilan «Saylanma»si chop etildi. G'azal, muxammas, ruboiy, «faloniy» turkumidagi

qit'alari. «Xalq», «Til», «Ulamolarga», «Sipohiyilarga», «Hurriyat» kabi she'rlari mashhur.) Tuyuq janri va Bobur tuyuqlari. (Tuyuq turkiy xalqlar she'riyatiga xos janr. To'rtliklar tarzida aruzning «ramali musaddasi maqsur» vaznida ishqiy sho'x mavzularda yozilgan. Qofiyalarda ko'proq tajnisli (omonim) so'zlar qo'llanilgan. Bobur ijodida tuyuqlar hamda qit'a tuyuqlar.) Sayfi Saroyi adabiy merosi. (Sayfi Saroyining lirik she'rlaridan namunalar. «Suxayl va Guldursun» dostoni. «Guliston bit turkiy» Sa'diy Sheroziyning «Guliston» asarining ijodiy tarjimai. Asarda shoirlarning o'rni, iste'dodi haqida juda muhim adabiy–estetik fikrlarni bayon etgan. Adib ijodida komil inson g'oyasi.) Muqimiy hayoti va ijodi. (Muqimiy (1850-1903) milliy uyg'onish davri adabiyotining mashhur vakili, xassos, lirik shoir. Sayohatnomalar, she'riy va nasriy maktublar muallifi. Muqimiy satirasi va murabba'lari.) Nodira hayoti va lirikasi. (Komila, Nodira, Maknuna taxalluslari. Devon tartib bergan ikki tilli shoira. Oshiqlar g'azalxoni Nodira (1792 – 1842) Umarxon Amiriyning umr yo'ldoshi. Muhammadsharif So'fizoda ijodi. (Tarjimai holi, hajviy she'rlari uchun shoirning «daxriy» deb e'lon qilinishi, «Bizlar» she'ri. Uning chet ellarda bo'lishi. Sufizoda lirikasi. Ma'rifiy shoir sifatida). Urxun-Enasoy obidalarining janr va badiiy xususiyatlari (Bitiktoshlarning o'rganilishi, nasr va she'r, qofiya, doston, takror). O'gdulmish timsoliga tavsif (Yusuf Xos Hojib, “Qutadg'u bilig”, aql bilan to'ldirilgan, vazirning o'g'li, suhbat odobi, ijtimoiy tabaqalar). Qadimgi she'riyat va qo'shiq namunalari (“DLT”, to'rtlik, qo'shug', yir, kug (ko'g), lirika, pandnoma, vazn). “Qutadg'u bilig” va “Hibat ul-haqoyiq” dostonlaridagi to'rtliklarning mushtarak va farqli belgilari (vazn, shakl, til, mazmun). Qadimgi afsonalarda qahramonlik pafosi (Yunon tarixchilari, Eron va Turon, yovuz kuchlar, To'maris, Shiroq, Rustam, Gershasp). Moniylik ta'limoti va qadimgi turkiy adabiyot (Moniy ibn Fattak, tavbanoma, naqqosh timsoli, dostonlardagi timsollar). Ahmad Yassaviy hayotiga oid qanday ma'lumotlaringiz bor? (Yassi, Sayram, Arslonbob, xurmo, Hamadoniy, uchinchi xalifa, 63). Yusuf (a.s) qissasi Rabg'uziy talqinida (qissaning qisqacha mazmuni, asosiy obrazlar tahlili, nasr va nazm). Xorazmiy hayoti va ijodini o'rganish tarixi (“Muhabbatnoma”ning qo'lyozma nusxalari, nashrlari, nomalar miqdori, majoziy va haqiqiy ishq, Y.Is'hoqov). “Muhabbatnoma”da shoir shaxsiyatiga oid ma'lumotlar (muqaddima boblari, Sir yaqosi, Muhammadxo'jabek, “Ochunda porsidaftarlaring bor”, hikoyat). XIV-XV asrlar adabiyotida munozara janri (Yaqiniy va uning “O'q va Yoy” munozarasi, Yusuf Amiriyning “Bang va Chog'ir” asari). Sayfi Saroyi asarlarining qo'lyozmasi va o'rganilishi haqida ma'lumot bering (Gollandiya, Leyden, E.Fozilov, 1968. “Uch bulbul gulshani”, g'azal, masnaviy, “Guliston bit-turkiy”). “Guliston bit-turkiy” asarining yaratilish tarixi va tuzilishi (muqaddimadagi ma'lumotlar, Sa'diy, sakkiz bob, hikoyat). “Guliston bit-turkiy” asaridagi hikoyatlarning g'oyaviy badiiy xususiyatlari (mavzu, mazmun, g'oya, obraz, nasr va nazm, bir hikoyat tahlili). “Gul va Navro'z” dostonining muallifi masalasidagi munozaralar haqida umumiy ma'lumot (Lutfiy, Haydar Xorazmiy, Bobur, Ahmad Taroziy). Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror” dostoni (Nizomiy, “Panj Ganj”, sare' bahri, maqolot, hikoyat, mav'iza). Mavlono Atoyi ijodini o'rganish tarixi (devon qo'lyozmasi, nashrlari, Samoylovich, Sayfiddin Rafiddin, yagona nusxa, Sankt-Peterburg, 260). Markaziy Osiyoning buyuk allomalari asarlarida adabiyotshunoslik va badiiy ijod masalalari (Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino). Sayid Qosimiy adabiy merosi haqida nimalarni bilasiz? (Rampur, H.Sulaymonov, B.Qosimxonov, “Masnaviyalar majmui”, “Majma'ul-axbor” “Haqiqatnoma”, “Sadoqatnoma”). Sulton Husayn

Boyqaro – Husayniy hayoti va adabiy merosining o'rganilishi ("Majolis un-nafois", 8-majlis, turkona uslub, ramal bahri, A.Erkinov, B.Valixo'jayev). Abu Rayhon Beruniyning "O'tmish xalqlaridan qolgan yodgorliklar" ("Osor ul-boqiya min qurun ul-holiya") va "Mineralogiya asarlarida qadimgi ajdodlar madaniyati va badiiy tafakkuriga oid ma'lumotlar.IX-XI asrlarda fors-tojik tilidagi adabiyotning shakllanish omillari (mahalliy davlatlar, fors-dariy adabiy tili). O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish masalasi (adabiyot tarixi-jamiyat tarixi,)Ro'dakiy hayoti va adabiy merosi (shaxsiyatiga oid ma'lumotlar, she'riyati, "Bo'yi jo'yi mo'liyon" qasidasi). "Qutadg'u bilig" dostoni kompozitsiyasi (vazn, she'riy shakl, boblar mundarijasi, muqaddima)."Qutadg'u bilig" dostonining badiiy xususiyatlari (vazn, she'riy shakllar, badiiy san'atlar)."Hibat ul-haqoyiq" dostoni kompozitsiyasi (vazn, she'riy shakl, boblar mundarijasi).Ahmad Yugnakiy va Ahmad Yassaviy to'rtliklarining qiyosiy tahlili (janr, vazn, mavzu, g'oyaviy-badiiy xususiyatlar)."Qisas ul-anbiyo" Rabg'uziy manbalari (asarda tilga olingan diniy va tarixiy asarlar, ularning mualliflari).Yusuf (a.s) qissasi Rabg'uziy talqinida (qissaning qisqacha mazmuni, asosiy obrazlar tahlili)."Qisas ul-anbiyo" (Rabg'uziy) asarining qo'lyozmalari, o'rganilishi, nashrlari (2, Britaniya, Sankt-Peterburg, Gronbek, Sherbak, E.Fozilov).Xorazmiy "Muhabbatnoma"si va lirik janrlar taraqqiyoti (g'azal, masnaviy, soqiynoma, qit'a, fard). Xorazmiy "Muhabbatnoma"si va lirik janrlar taraqqiyoti (g'azal, masnaviy, soqiynoma, qit'a, fard).Xorazmiy "Muhabbatnoma"sining tasavvufiy mohiyati haqida nimalarni bilasiz? (Y.Is'hoqov, Majoziy va ilohiy ishq, "Muhammaddin muhabbat bo'ldi paydo", "Ko'ngul bir, Ka'ba bir, ma'shuqa ham bir", "Haqiqat olamini munda bilg'ay"). Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostonida diniy aqidalar va axloqiy qadriyatlarning badiiy ifodasi (Imon, hayo, sabr, taqdir).Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostonida badiiy to'qima (Qur'ondagi qissa va Durbek dostoni sujetidagi tafovutlar).XVI asr adabiy hayoti manbalari va xususiyatlari (tarixiy va yodnoma asarlar, tazkiralar, "Muzakkiri ahbob").Muhammad Soleh shaxsiyati va adabiy merosi haqida ma'lumotlar ("Majolis un-nafois", Nur Saidbek, Jomiy, Shayboniyxon, "Malik ush-shuaro", Buxoro).Ubaydiy she'riyati ("Vafo qilsang" va "Diydor orzusi" to'plamlaridagi she'rlar, janr tarkibi, to'rtlik va ruboiylar). Boburshunoslik tarixi haqida muxtasar ma'lumot ("Boburnoma", "Muzakkiri ahbob", "Tarixi Rashidiy" asarlaridagi ma'lumotlar; Bobur hayoti va merosining O'zbekistonda Sharq va Yevropa ilmiy markazlarida o'rganilishi, asarlarining nashr ettirilishi). Bobur she'riyati manbalari (ilk qadamlar, devonlar, janr rang-barangligi, A.Stebleva, S.Azimjonova, Sh.Yorqin tadqiqotlari haqida). "Boburnoma" Bobur shaxsiyati va faoliyatini o'rganishning asosiy manbai sifatida (asarda Bobur ajdodlari va oilasi haqida, Bobur va Samarqand, shoirning ilk ijodiy izlanishlari)."Miftoh ul-adl" va "Gulzor" asarlarining yaratilishi, o'rganilishi kompozitsiyasi va tarkibi (M.Mirzaahmedovanning "Xoja" monografiyasi asosida).Shoir Majlisiiy haqida ma'lumotlar "Qissai Sayfulmuluk" asarining topilishi, o'rganilishi, nashrlari (Taxallus, Majlisiiy va Bobur, "Muzakkiri ahbob"dagi ma'lumotlar, asar qo'lyozmasi va nashri).XVI-XIX asrlardagi tazkiralar.(H. Nisoriy, M.Samarqandiy, Mutribiy, Fazliy, R.Vozeh, Tabibiy tazkiralari)Amiriy lirikasi (1882 yil, Istanbul, 1905 yil Toshkent, Devon, 1972, M.Qodirova, g'azal, muxammas, 3 musaddas, 6 tuyuq, muhabbat mavzusi)Nodira hayoti va ijodi (1792-1842, Mohlaroyim. Nodira, Komila, Umarxon-Amiriy, Qo'qon, Nodirai davron, Xotif, «Haft gulshan», «Ey sarvi ravon», «Nodira-Maknuna») Xojaning «Miftoh ul-adl» va «Gulzor» asarlari. (Poshshoxoja, Nisoriy, «Guliston», k'ikoyat, didaktika, she'riy

parchalar).«Munis ul-ushshoq» devonining janr tarkibi (1815 yil, debocha, g'azallar, qasida, ruboiy, tuyuq, mustazod, muxammas, musaddas, qit'a)So'fi Olloyor hayoti va ijodining o'rganilish tarixi (B.Valixo'jayev, I.Suvonqulov, I.Haqqulov, Sh.Sirojiddinov, N.Olloyorova)

“Zamonaviy o'zbek adabiyoti va adabiy jarayon”.

